O'qituvchilar tomonidan darsda tekshirilmagan, manbasi noma'lum yoki noto'g'ri talqin qilingan ma'lumotlardan foydalanish ta'lim jarayonining ob'yektivligi va ilmiy asoslanganligini zaiflashtiradi. Bu holat o'quvchilarda predmetga bo'lgan ishonchni kamaytiribgina qolmay, umuman ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiqodning pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchilar noto'g'ri axborotni tasodifan tarqatib yuborgan hollarda, dars sifati va pedagogik natijalarning barqarorligi buziladi. Bunday vaziyatlar ta'lim jarayonida axborot manbalarini sinchiklab tanlash, materialni faktlar bilan tasdiqlash va o'quvchilarga ishonchli bilim yetkazish bo'yicha yangi pedagogik mas'uliyatlarni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy va psixologik jihatdan esa misinformatsiya va dizinformatsiya maktab jamoasida turli tushunmovchiliklar, asossiz xavotirlar va ijtimoiy tarangliklarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Ota-onalar orasida tekshirilmagan xabarlar tarqalishi maktabning obro'siga putur yetkazishi, hatto ta'lim jarayoniga sun'iy ravishda tashqi bosimlar paydo bo'lishiga olib keladi. O'quvchilar esa, ayniqsa yoshlar, ijtimoiy tarmoqlarda tekshirilmagan kontentni oson ulashishlari sababli bilmagan holda yolg'on axborot kampaniyalarining ishtirokchisiga aylanib qolishlari mumkin. Bu esa nafaqat ularning raqamli madaniyatini zaiflashtiradi, balki axborotni tanlab olish mas'uliyatining pastligi sababli intellektual xavflarni ham kuchaytiradi. Umuman olganda, noto'g'ri ma'lumotning ta'lim muhitida keng tarqalishi o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasining pasayishiga, jamiyatning axborot muhitida haqiqatning qiymati kamayishiga va umumiy ta'lim sifatining izdan chiqishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Misinformatsiya va dizinformatsiya jarayonlarining ta'lim boshqaruvida ta'siri nihoyatda dolzarb masaladir, chunki noto'g'ri axborot maktab rahbariyati, hududiy ta'lim bo'limlari va siyosiy qaror qabul qiluvchilar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, boshqaruv tizimida qarorlar aniq, tekshirilgan va obyektiv ma'lumotlar asosida qabul qilinishi lozim. Ammo informatsion muhitda tarqalayotgan yolg'on yoki manipulyativ xabarlar rahbarlarni real vaziyatdan chalg'itib, noto'g'ri strategik qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, maktabdagi holat, o'quvchi xavfsizligi, o'quv jarayonidagi muammolar yoki o'qituvchilarga oid vaziyatlar bo'yicha asoslanmagan mish-mishlar rahbariyat va jamoa o'rtasida ishonchsizlikni kuchaytiradi. Bu esa boshqaruvning ochiqdigi va shaffofligini pasaytirib, ta'lim muassasasining ichki kommunikatsiya tizimini izdan chiqaradi.

Misinformatsiya va dizinformatsiya tezkor tarqalayotgan zamonaviy jamiyatda tanqidiy fikrlash ta'lim jarayonining asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki noto'g'ri



ma'lumotlarning ko'payishi o'quvchilarni axborotni avtomatik qabul qilishga undaydi, bu esa ularning mustaqil tahlil qilish, manba ishonchligini baholash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini zaiflashtiradi. Shunday sharoitda faktcheking tanqidiy fikrlashni shakllantirishning eng amaliy vositasi sifatida xizmat qiladi: o'quvchilar dalillarni tekshiradi, manbalarni solishtiradi, ma'lumotning haqqoniyligini tahlil qiladi va yolg'on xabarlar mexanizmini anglay boshlaydi. Natijada ta'lim jarayonida faktlarni tekshirish madaniyati shakllanib, o'quvchilar misinformatsiya va dizinformatsiyaga duch kelganida unga tanqidiy yondashishni o'rganadi. Bu jarayon nafaqat intellektual mustaqillikni kuchaytiradi, balki axborot xavfsizligi bo'yicha ongli xulqni shakllantirib, o'quvchilarni raqamli makonning faol va mas'uliyatli ishtirokchisiga aylantiradi.

UNESCO standartlariga ko'ra, media savodxonlik o'quvchilarning raqamli axborot maydonida ongli harakat qilishini ta'minlovchi asosiy kompetensiyalar majmuasidir. ^[5] U kontentning maqsadini tahlil qilish, manipulyatsion belgilarni aniqlash, axborot oqimini boshqarish va xavfsiz raqamli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Faktcheking jarayoni media savodxonlikning asosiy vositalaridan biridir: u o'quvchilarga ma'lumot manbalarini tekshirish, dalillarni solishtirish, xabarlarining ishonchlik darajasini aniqlash va raqamli makonda ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Natijada faktcheking faqat noto'g'ri ma'lumotlarga qarshi kurash vositasi bo'lib qolmay, balki UNESCO ta'kidlagan media savodxonlik elementlarining amaliy shakllanishini ta'minlovchi samarali pedagogik mexanizmga aylanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli makonda misinformatsiya va dizinformatsiya oqimining kuchayishi faqat o'quvchilarning individual axborot xatti-harakatlariga emas, balki butun ta'lim tizimi faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli media savodxonlikni rivojlantirish UNESCO tomonidan belgilangan ta'lim standartlarining ajralmas qismiga aylangan. Bu standartlarga ko'ra, o'quvchilar nafaqat axborotni iste'mol qiluvchi, balki uni tahlil qila oladigan, manipulyativ xabarlarni aniqlay oladigan va xavfsiz raqamli muhitda ongli qaror qabul qiladigan subyekt sifatida shakllanishi kerak. Avvalgi paragraflarda qayd etilganidek, faktcheking tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, o'quvchilarni dalillarni tekshirish, manba ishonchligini baholash va xabarlarining haqqoniyligini aniqlashga o'rgatadi. UNESCOning media savodxonlikka oid yondashuvi aynan shu jarayonni mustahkamlab, faktchekingning ta'limdagi o'rnini yanada kengaytiradi, chunki misinformatsiya va dizinformatsiya xavfini kamaytirish faqat texnik ko'nikmalarni emas, balki axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Shu ma'noda, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va faktcheking o'zaro bog'langan yagona tizim bo'lib, ular ta'limni raqamli xavflardan himoya qiluvchi, o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli raqamli fuqaro sifatida tarbiyalovchi muhim poydevorni yaratadi. Faktchekingni samarali tashkil qilishning bir necha texnika va usullari bo'lib, ularning ta'limga integratsiya qilinishi o'quvchilarning axborot bilan ongli va tizimli ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Xususan, xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan "CRAAP Test" (Currency, Relevance, Authority, Accuracy, Purpose) o'quvchilarga har qanday axborot manbasini tahlil qilishga yordam beradigan metodlardan biridir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar muallifning kimligini aniqlash, manbaning tashkilotga mansubligi, e'lon qilingan sanasi, dalillarning mavjudligi va materialning maqsadini baholash kabi muhim jihatlarni tahlil qilishni o'rganadi. Bu esa oldingi boblarda ko'rib o'tilgan media savodxonlik va tanqidiy fikrlashning amaliy davomi bo'lib, o'quvchi nafaqat noto'g'ri axborotdan himoyalani, balki axborotni tekshirish va ishonchlik darajasini aniqlash bo'yicha tizimli yondashuvni qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Natijada, faktcheking texnikalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi misinformatsiya va dizinformatsiyaga qarshi kurashning eng samarali pedagogik vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. ^[6]

JST (Joint Source Testing) modeli misinformatsiya va dizinformatsiyaga qarshi kurashning samarali pedagogik mexanizmi sifatida nafaqat o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirishga, balki ta'lim boshqaruvining samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ushbu besh bosqichli model – idrok qilish, savollar berish, tekshirish, xulosa chiqarish va taqqoslash-muhokama – o'quvchilarga axborotni sistematik tahlil qilishni o'rgatadi va dars jarayonida faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni rag'batlantiradi. Shu orqali maktab rahbariyati va hududiy ta'lim bo'limlari axborot oqimini nazorat qilish, darslarda ishlatiladigan manbalarni baholash va pedagogik qarorlarni asoslash imkoniyatiga ega bo'ladi. JST modeli nafaqat o'quvchilarda faktcheking ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ta'lim boshqaruvchilari uchun ham ta'lim jarayonining shaffofligi, ishonchligi va sifatini ta'minlashda amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Natijada, ta'lim boshqaruvi va o'quv jarayoni o'rtasida uzviy aloqa o'rnatilib, misinformatsiya va dizinformatsiya ta'sirini kamaytirish bilan birga, raqamli makondagi xavfsiz va tizimli axborot muhitini yaratishga zamin yaratiladi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarda tarqaladigan vizual kontent – fotosuratlar, videolar va infografikalar – tez-tez misinformatsiya yoki dizinformatsiya vositasi sifatida ishlatiladi. Shu sababli, o'quvchilar va ta'lim boshqaruvi xodimlari uchun vizual axborotni tekshirish ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Buning birinchi va eng keng qo'llaniladigan usuli – reverse image search (teskari rasm qidiruv) bo'lib,



Google Images yoki TinEye kabi vositalar orqali rasmning asl manbasi, birinchi e'lon qilingan vaqti va internetdagi tarqalish tarixini aniqlash mumkin. Bu usul rasmning manipulyatsiya qilingan yoki kontekstdan chiqarilganini aniqlashda juda foydali. Ikkinchi metod – metadata tahlili, ya'ni rasm yoki videoning fayl ma'lumotlarini (kamera turi, surat olingan sana va vaqt, geolokatsiya) tekshirishdir. Metadata orqali rasmning original yoki soxta ekanligini, uni qayta ishlash darajasini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, grafik manipulyatsiyalarni aniqlash texnikalari ham muhim bo'lib, ular yordamida fotomontaj, rang kontrasti, yorug'lik va soyalar orqali yaratilgan sun'iy o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

Videolarni tekshirishda esa deepfake indikatorlariga e'tibor qaratish talab etiladi. Bunga ko'z harakatining tabiiy bo'lmagan ritmi, yuzning notabiiy yorug'lanishi yoki audio bilan sinxronlik buzilishi kabi belgilar kiradi. Masalan, gapirayotgan odamning lab harakatlari va tovushning mos kelmasligi yoki yuzdagi g'ayrioddiy yorug'lik o'zgarishlari deepfake mavjudligini ko'rsatadi. ^[7] Pedagogik jihatdan, bu ko'nikmalarni o'quvchilarga o'rgatish faktcheckingning amaliy yo'nalishini mustahkamlash bilan birga, ularni raqamli makonda ongli va xavfsiz harakat qiladigan shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Shu tariqa, vizual kontentni tekshirish nafaqat misinformatsiya va dizinformatsiya oqimiga qarshi samarali vosita, balki media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim pedagogik komponenti sifatida xizmat qiladi.

Vizual kontentni tekshirish ko'nikmalari ta'lim boshqaruvi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki maktab rahbariyati va hududiy ta'lim bo'limlari qarorlarni qabul qilishda asosli va ishonchli axborotga tayanishi zarur. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan fotosuratlar, videolar yoki infografikalar ko'pincha kontekstdan chiqarilgan, manipulyatsiya qilingan yoki soxta bo'lishi mumkin, bu esa maktab ichidagi muammolar, o'quvchi xavfsizligi yoki pedagogik jarayonlar haqidagi noto'g'ri xulosalarga olib keladi.

Vizual kontentni tekshirish metodlarini amaliyotga joriy qilish orqali ta'lim boshqaruvchilari rasm va videolarning asl manbasini aniqlash, ularning haqqoniyligini baholash va qarorlarini asoslash imkoniga ega bo'ladi. Maktab direktorlari uchun faktchecking va media savodxonlik faoliyatlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish strategik boshqaruv vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki darslarda faktchecking bo'yicha mini-topshiriqlar berilishi, o'quvchilarning mustaqil axborot izlash ko'nikmalarini rivojlantirish yoki Factchecknet.uz, PolitiFact, Snopes kabi platformalardan foydalanish bevosita maktab rahbariyatining tashkiliy qo'llab-quvvatlovini talab qiladi. Direktorlar bu jarayonni samarali boshqarish orqali o'qituvchilarga zarur resurslar yaratadi, media savodxonlik bo'yicha tematik haftaliklar tashkil etadi hamda ota-onalar uchun "Raqamli gigiyena" bo'yicha seminarlar o'tkazilishini muvofiqlashtiradi. Bu faoliyatlar ta'lim muassasasida axborot xavfsizligini ta'minlash, misinformatsiya va dizinformatsiya tarqalishining oldini olish hamda barcha manfaatdor tomonlarning raqamli madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, maktab direktori faktchecking tashabbuslarining tashkiliy rahbari sifatida nafaqat o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini, balki butun maktab jamoasining axborot madaniyatini rivojlantiruvchi muhim boshqaruv figuraga aylanadi.

Dunyo tajribasi media savodxonlikni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullarini ko'rsatadi. Masalan, Finlyandiya maktablarida axborotni tahlil qilish ko'nikmalari birinchi sinfdan boshlab shakllantiriladi va bu davlat ta'lim tizimi dunyoda media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha yetakchi tajribaga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda o'quv jarayoni nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda axborotni baholash, tahlil qilish va manipulyatsiyadan himoyalash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Media savodxonlik ko'nikmalari maktab dasturlariga erta bosqichdan – hatto 1-sinfdan boshlab – kiritiladi. Masalan, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga oddiy va kundalik axborot manbalarini ajratish, rasm va matnlar orqali xabarlarini tahlil qilish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. O'rta va yuqori sinflarda esa vazifalar murakkablashib, talabalar yangiliklar manbalarini tekshirish, ularning ishonchligini baholash, faktlarni solishtirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini o'rganadi. ^[8]

Finlyandiya maktablarida o'qituvchilar muntazam malaka oshirish kurslarida qatnashib, zamonaviy faktchecking va media savodxonlik metodikalarini o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar faol qo'llaniladi: interaktiv platformalar, onlayn testlar va multimedia materiallari o'quvchilarga kontentni tahlil qilishni amaliyotda o'rgatadi. O'quvchilarga jamoaviy loyihalar orqali ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan misinformatsiya va dizinformatsiyani aniqlash, vizual kontentni tekshirish va to'g'ri xulosalar chiqarish ko'nikmalari mustahkamlanadi. O'zbekiston sharoitida Finlyandiya tajribasini moslashtirish orqali maktablarda axborot bilan ishlash ko'nikmalari erta bosqichdan shakllantiriladi, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi oshadi va raqamli makondagi xavfsiz harakat qilish kompetensiyalari rivojlanadi. Shu bilan birga, maktab direktorlarining strategik roli muhim bo'lib, ular dars rejalari va o'quv resurslarini ta'minlash, o'qituvchilarni malaka oshirish kurslariga jalb qilish va ota-onalarni media savodxonlik bo'yicha xabardor qilish orqali Finlyandiya tajribasini samarali joriy etishni ta'minlay oladilar.

Natijada, o'quvchilarda faktchecking va tanqidiy fikrlash kompetensiyalari rivojlanadi, ta'lim sifatini oshirish va maktab boshqaruvining shaffofligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Bu borada Estoniya ham yetakchi davlatlardan bo'lib, mamlakatning ta'lim strategiyasi asosida barcha fanlar doirasida media savodxonlik integratsiya qilingan. Estoniyada raqamli ta'lim va media savodxonlik bir-biriga uzviy bog'langan bo'lib, o'quvchilarning



axborot bilan ishlash ko'nikmalarini fanlarning har bir modulida rivojlantirishga qaratilgan. ^[9] Masalan, matematika yoki tabiiy fanlar darslarida o'quvchilarga grafiklar, diagrammalar va eksperiment natijalarini tahlil qilish, ularning manbalarini tekshirish va xulosalar chiqarish o'rgatiladi. Tarix yoki ijtimoiy fanlar darslarida esa yangiliklar, fotosuratlar va videolarni tanqidiy baholash, manipulyatsion yoki noto'g'ri kontekstdagi axborotni aniqlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu tariqa, media savodxonlik ko'nikmalari alohida dars emas, balki barcha fanlar doirasida uzviy integratsiya qilinadi, bu esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni va faktcheking ko'nikmalarini barqaror rivojlantirishga imkon beradi. Estoniyada raqamli platformalar va interaktiv vositalar faol qo'llaniladi: o'quvchilar onlayn testlar orqali axborot manbalarini tekshirish, vizual kontentni tahlil qilish va yolg'on xabarlarini aniqlashni o'rganadi. Shu bilan birga, o'qituvchilar muntazam malaka oshirish kurslarida ishtirok etib, raqamli ta'lim va media savodxonlik bo'yicha yangi metodlarni o'zlashtiradilar.

O'zbekiston kontekstida Estoniya tajribasini moslashtirishda barcha fanlar bo'yicha media savodxonlik modulini ishlab chiqish, darslar davomida vizual va matnli kontentni tanqidiy baholash ko'nikmalarini joriy etish, raqamli platformalar va interaktiv resurslardan foydalanishni kengaytirish kabi bir qator usullarni qo'llab ko'rish mumkin. Shu orqali o'quvchilar nafaqat axborotni tahlil qiluvchi, balki raqamli makonda ongli qaror qabul qiladigan shaxs sifatida shakllanadi, maktab direktorlarining strategik va tashkiliy roli esa ushbu jarayonni ta'minlash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Janubiy Koreyada "Digital Safety Education" dasturi maktablar darajasida muntazam qo'llaniladi va o'quvchilarning raqamli makondagi xavfsizligi, media savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. ^[10] Bu dastur o'quvchilarga ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan misinformatsiya va dizinformatsiyani aniqlash, vizual va matnli kontentni tekshirish, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni beradi. Maktab boshqaruvi nuqtai nazaridan, ushbu dasturning samarali joriy etilishi direktorlar va rahbariyatning strategik boshqaruv faoliyatiga bog'liq. Direktorlar dastur uchun zarur resurslar ajratadi, o'qituvchilarni malaka oshirish kurslariga jalb qiladi, dars rejalarini va media savodxonlik mashg'ulotlarini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, ular ota-onalarni xabardor qilish va jamoatchilik bilan aloqa o'rnatish orqali raqamli xavfsizlikning maktab darajasida barqaror shakllanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida ham Janubiy Koreya tajribasini moslashtirish imkoniyati mavjud. Maktab direktorlari "Digital Safety Education" kabi dasturlarni strategik jihatdan boshqarib, ularni fanlar doirasida integratsiya qilishi, o'quvchilarga amaliy faktcheking va media savodxonlik ko'nikmalarini o'rgatishi, shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi mumkin. Natijada maktab boshqaruvi misinformatsiya va dizinformatsiya oqimining oldini olishda faollashadi, o'quvchilar esa raqamli makonda ongli va xavfsiz harakat qiluvchi, tanqidiy fikrlash va axborotni baholash ko'nikmalariga ega shaxs sifatida shakllanadi. Shu tariqa, Janubiy Koreya tajribasi O'zbekiston maktablari uchun media savodxonlikni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'yicha amaliy model sifatida xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy ta'lim tizimida misinformatsiya va dizinformatsiya oqimining kuchayishi maktab boshqaruvi va pedagogik jarayonlarni muvofiqlashtirishda yangi strategik yondashuvlarni talab qiladi.

Birinchi navbatda, milliy media savodxonlik standartlarini ishlab chiqish muhimdir. Bu standartlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish va manipulyatsiyalardan himoyalash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularni barcha maktab fanlarida uzviy integratsiya qilish mumkin.

Ikkinchi strategiya – maktablarda axborot xavfsizligi bo'yicha ichki siyosat yaratishdir. Bu siyosat maktab rahbariyati uchun rahbarlik va monitoring tizimini belgilab, darslarda ishlatiladigan barcha onlayn resurslarni tekshirish, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan noto'g'ri ma'lumotlarni monitoring qilish va o'quvchilar hamda xodimlar uchun xavfsiz axborot muhitini shakllantirish bo'yicha amaliy choralarni belgilaydi.

Uchinchi strategiya – faktcheking ko'nikmasini barcha fanlarda qo'llanadigan kompetensiya sifatida belgilashdir. Bu yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat o'zbek tili va chet tillari darslarida, balki tarix, tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlarda ham axborotni tekshirish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarga metodik tavsiyalar berilib, faktcheking amaliy mashg'ulotlari o'quv jarayoniga integratsiya qilinadi.

To'rtinchi strategiya – o'quvchilarning raqamli madaniyati bo'yicha muntazam monitoringni yo'lga qo'yishdir. Maktab direktorining tashkiliy roli bu yerda strategik ahamiyatga ega bo'lib, monitoring natijalari asosida pedagogik qarorlar qabul qilinadi, zarur holatlarda malaka oshirish kurslari yoki qo'shimcha treninglar tashkil etiladi, shuningdek, raqamli xavfsizlik va media savodxonlik bo'yicha ta'lim jarayoni optimallashtiriladi.

Beshinchi strategiya – OAV bilan hamkorlikda to'g'ri axborot tarqatish loyihalarini yo'lga qo'yishdir. Maktab rahbariyati ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni rivojlantirib, o'quvchilar va ota-onalarni axborot manbalari ishonchligi hamda misinformatsiya va dizinformatsiyadan himoyalash bo'yicha xabardor qiladi. Shu tarzda, maktab boshqaruvi va OAV hamkorligi misinformatsiya oqimini kamaytirish, axborot maydonini shaffoflashtirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, yuqorida sanab o'tilgan strategiyalar nafaqat pedagogik jarayonlarni mustahkamlab, balki maktab direktorlarining strategik boshqaruv rolini kuchaytiradi, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va faktcheking ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda raqamli makondagi xavfsiz axborot muhitini yaratadi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, misinformatsiya va dizinformatsiya bugungi raqamli jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ta'lim tizimi ushbu jarayonlarning ta'siriga eng ko'p duch kelayotgan sohaga aylanmoqda. Ta'limda faktchekingni joriy etish o'quvchilarni ongli, tanqidiy fikrlaydigan, axborotni tahlil qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar faktcheking metodlaridan samarali foydalana olishi uchun ularga metodik qo'llanmalar, treninglar va raqamli manbalar zarur. Maktab va umuman ta'lim tizimida media savodxonlikni rivojlantirish misinformatsiya xavfini sezilarli kamaytiradi va ta'lim sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boymurodov, D. (2023). O'zbekistonda mediasavodxonlik holati, mavjud muammolar va rivojlanish tendensiyalari. Educational Research in Universal Sciences jurnali, 2, 654-bet.
2. Digital 2022: Uzbekistan – DataReportal Global Digital Insights. (2022). Retrieved from: <https://datareportal.com/reports/digital-2022-uzbekistan>
3. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). Information Disorder. Council of Europe, 46-bet.
4. Lewandowsky, S., Ecker, U., & Cook, J. (2017). Beyond Misinformation. Journal of Applied Research in Memory and Cognition, 353–369-betlar.
5. UNESCO (2023). Guidelines for Regulating Digital Platforms.
6. Rasulov, I. (2022). Raqamli makonda misinformatsiya va dizinformatsiyani aniqlash texnologiyalari. Axborot xavfsizligi jurnali, 5(3), 12–20-betlar.
7. Paris, B., & Donovan, J. (2019). Deepfakes and Cheap Fakes. Data & Society, 8–9-betlar.
8. Finnish National Agency for Education (2016). National Core Curriculum.
9. Ministry of Education and Research of Estonia (2020). DIGCOMP Model.
10. Korea Ministry of Education (2022). Digital Safety Education Curriculum.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.